



O'zbekiston Respublikasida
AYOLLAR TADBIRKORLIGI
BO'YICHA MOLIYAVIY KODEKSNI
JORIY ETISH MILLIY NIZOMI



NIZOM MA'LUMOTLARI

	MA'LUMOT
Hujjat	O'zbekiston Respublikasida Ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Kodeksni joriy etish Milliy nizomi
Tasdiqlangan sana	15.07.2025 yil
Muallif	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

NIZOM ISHLAB CHIQILISHI

	Sana	O'zgartirishlar
1.0	17.03.2025	Nizomning birinchi loyihasi ishchi guruh bilan muhokama qilindi
1.1	25.06.2025	Ishchi guruh tomonidan Nizom loyihasi ko'rib chiqildi
1.2	15.07.2025	Nizom tasdiqlandi

Mundarija

1. KIRISH	2
2. JORIY HOLAT VA MAQSADLAR	3
2.1 O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi haqida qisqacha axborot.....	3
2.2 Kodeksning maqsadlari	5
3. KODEKSNING ASOSIY ELEMENTLARI.....	Error! Bookmark not defined.
3.1 Boshqaruv.	5
3.2 Kodeksni imzolagan tashkilotlar	6
3.3 Ishchi guruh	6
3.4 Tartib-qoidalar	8
4. IMZOLOVCHI NOMZOD TASHKILOTLARNI ANIQLASH VA ULARNI JALB QILISH.....	9
4.1 Imzolovchi nomzod tashkilotlar va tanlov mezonlari	9
4.2 Imzolovchi tashkilotlarni aniqlash va jalb qilish	9
5. MA’LUMOTLARNI YIG‘ISH VA HISOBOT BERISH JARAYONI	10
5.1 Hisobot berish bosqichi	10
5.2 Asosiy tushunchalar.....	10
5.3 Yakuniy qoida	11
ILOVALAR	12
Ilova 1. Imzolovchi tashkilotlar ro‘yxati	12
Ilova 2. Milliy championlar (National Champions).	13
Ilova 3. Ekotizimni rivojlantirishda ishtirok etuvchi hamkor imzolovchilar.	13
Ilova 4. Imzolovchi tashkilotlar foydalanishi mumkin bo‘lgan xalqaro o‘quv dasturlari (“Peer Learning”)	14

1. KIRISH

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks (*keyingi o‘rinlarda WE Finance Code*) – bu Jahon banki tomonidan boshqariladigan ko‘plab manfaatdor tomonlarning global tashabbusi bo‘lib, u xususiy va davlat sektorlarini milliy darajadagi harakatlar va siyosatni muvofiqlashtirishga jalb qilish orqali tadbirkor ayollarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks sohaga doir ustivor jihatlarni qamrab olib, xususan:

- Mamlakatdagi mavjud va amaldagi milliy tashabbuslarga asoslanadi (Moliyaviy ommaboplrik bo‘yicha milliy strategiyalari, Barqarorlik strategiyalari, Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish rejali va boshqalar);
- ayollar boshchiligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlikni moliyalashtirishni kengaytirish bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirish uchun xususiy va davlat sektorlari Ishchi guruhini yaratishini talab qiladi;
- ayol-tadbirkorlarni moliyalashtirish bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va ulardan foydalanishni muhum yo’nalish sifatida belgilaydi.

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks hozirda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ayollar boshchiligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish hamda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion yechimlar orqali ularni qo‘llab-quvvatlash tarafdori sifatida Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksni (*WE Finance Code yoki “Kodeks”*) qo‘llab-quvvatlaydi va moliya sektori ekotizimidagi harakat hamda rag‘batlarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, ularning ta’sirini oshirish uchun Kodeksning ishga tushirilishini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ayollar boshchiligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion yechimlar orqali tarafdori sifatida Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks (“*WE Finance Code*” yoki “*Kodeks*”) qollab-quvvatlaydi va moliya sektori ekotizimidagi harakat va rag‘batlarni uyg‘unlashtirish hamda ularning tasirini oshirish uchun Kodeksning ishga tushirilishini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan ushbu milliy Nizomni joriy etish va ko‘lamini kengaytirish, Kodeksning xalqaro talablariga javob beruvchi va uni davlat siyosatiga moslashtiruvchi asosiy tamoyillar sifatida:

- ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksini qabul qilish orqali erishish mumkin bo‘lgan **asosiy maqsadlar**;
- Kodeksni qabul qilinishini nazorat qilish va mas’uliyat bilan **boshqarish**;
- Kodeksning qabul qilinishi va moliya institutlari o‘rtasidagi ta’sirini kengaytiruvchi **jarayonlar**;
- **ma’lumotlarni yaxlit holda jamlash mexanizmlari** va hisobot taqdim etish tizimini osonlashtirish belgilangan.

2. JORIY HOLAT VA MAQSADLAR

2.1 O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi haqida qisqacha axborot

Mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, ro‘yxatga olingen barcha tadbirkorlik subyektlarining qariyb 89 foizini tashkil etadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalarning umumiy soni 358 mingdan ortiqni tashkil etdi. Ushbu korxonalar mamlakat Yalpi Ichki Mahsuloti (YaIM) ga qariyb 55 foizdan ortiq hissa qo‘sadi¹. 2024-yilda O‘zbekistonda 5,2 millionga yaqin kishi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shundan 2,1 million nafari ayollardir. Iqtisodiyotdagi barcha ishchilarning qariyb 35 foizini ayollar tashkil etadi, bu ularning mamlakat taraqqiyotida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi².

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston milliy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2023-yilda “O‘zbekiston – 2030” milliy strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda maqsadli milliy dasturlar orqali xotin-qizlarning tadbirkorligini moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat dasturlari doirasida 2021-yilda oilaviy tadbirkorlik jumladan, ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun jami **86,5 million AQSh dollari**³, 2022-yilda tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun **14,6 million AQSh dollari** yo‘naltirildi⁴. 2024-yilda butun mamlakat bo‘ylab ayollar boshchiligidagi biznesni tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish uchun qo‘sishimcha **100 million AQSh dollari** yo‘naltirildi.⁵

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagি PQ-103-sonli qarorida 2025-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbuslar belgilab berilgan. Mazkur tashabbuslarda xotin-qizlarning bandligini ta’minalash, turli kasblar va tadbirkorlik bo‘yicha o‘quv dasturlarini taklif etish, xotin-qizlarning oliy ta’limga jalb qilish, shuningdek, ularning tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan motivatsion seminarlar tashkil etish kabi masalalar o‘rin olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagи PF-50-sonli qarorida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning yaxlit tizimini joriy etish, jumladan, biznes ko‘nikmasiga ega bo‘lмаган tashabbuskor xotin-qizlarni aniqlash va ularni tadbirkorlik asoslariga o‘qitish, tijorat banklari ko‘magida o‘zini o‘zi band qilgan xotin-qizlarga biznes loyihalarini ishlab chiqish va kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish, tez va yuqori sur’atlarda o‘sayotgan eng faol ishbilarmon ayollar bilan manzilli ishlab, ularni “champion” tadbirkorlarga aylantirish hamda tadbirkor ayollar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni respublikada mavjud elektron tijorat platformalarida joylashtirish va sotishga ko‘maklashish belgilangan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi

²BMTTD. 2025. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: baholash va tavsiyalar

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5041-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5345627>

⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ -55-son qarori. <https://lex.uz/docs/5785328>

⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-122-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6831817>

Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Ayollar Jahon banki kabi bir qancha xalqaro moliya institutlari O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim orin tutadi. Mahalliy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish orqali ushbu tashkilotlar tadbirkor ayollarning o‘sishiga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda yordam beradi, genderga yo‘naltirilgan strategiyalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda sifatli ta’lim va konsalting xizmatlarini taqdim etadi.

Shular qatorida, McKinsey xalqaro konsalting kompaniyasi sakkiz mamlakatda, jumladan, O‘zbekistonda ham ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi to‘siqlarini aniqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazdi. So‘rovnoma 849 nafar ishtirokchi qatnashdi, ulardan 549 nafari ayollar va 300 nafari erkaklar. Jami ishtirokchilardan 211 nafari faol tadbirkorlar: 85 nafari ayollar va 126 nafari erkaklardir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollar tadbirkorligi uchun bir qancha asosiy to‘siqlar aniqlandi:

Uy-ro‘zg‘or va parvarish bo‘yicha yuqori g‘amxo‘rlik mas’uliyati: Ayollar uy-ro‘zg‘or va bola parvarishi vazifalarini nomutanosib ravishda o‘z zimmalariga oladilar, bu esa ularning biznes bilan shug‘ullanishlari uchun vaqt va kuchini sezilarli darajada cheklaydi. **Erkaklarga qaraganda qariyb ikki baravar ko‘p ayollar maishiy majburiyatlarni** biznesni boshlash uchun asosiy to‘siq, deb bilishgan.

Biznesni boshlash va yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining yetishmasligi. Ayollar, **biznesni rejorashtirish, moliyaviy menejment va o‘ziga ishonch bo‘yicha ko‘nikmalarining yetishmasligini takidlaydilagan holda, ularning 44 foizi o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligini asosiy to‘siq deb bilishadi.** Shuningdek, ayollar erkaklarga nisbatan **muloqot, muzokaralar olib borish, hamkorlikni kengaytirish, boshqaruv va yetakchilik ko‘nikmalarining** yetishmasligini ta’kidlaydilar, bu bo‘shliq taqqoslash bosqichida yanada aniqroq bilinadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot Dasturi tomonidan 5543 nafar xotin-qiz ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ushbu xulosalarni tasdiqladi va O‘zbekistondagi tadbirkor ayollar duch kelayotgan asosiy muammolarga e’tibor qaratdi. Respondentlar tomonidan aniqlangan eng muhim to‘siq **ish va oila mas’uliyatini muvozanatlash bo‘lib, 48% ayollar buni asosiy muammo, deb hisoblagan.** Moliyalashtirish imkoniyati yana bir asosiy muammo sifatida qaralib, **ishtirokchilarning 41% buni muammoli masala deb ta’kidlandi.** Bundan tashqari, **respondentlarning 30%** mentorlik tizimi hali yo‘lga qo‘yilmaganligini jiddiy muammo sifatida ko‘rsatgan.

Ikkala so‘rovnoma ham O‘zbekistondagi tadbirkor ayollar duch keladigan eng katta muammolar – oilaga g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyatining og‘irligi, bilim yetishmasligi, mentorlik tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi, professional boshqaruvning zaifligi va moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar ekanligi ta’kidlangan. So‘rovnomalar natijalari moliyalashtirishni kengaytirish yo‘lida uzluksiz sa’y-harakatlarni davom ettirish muhimligi alohida etirof etilgan.

2.2 Ayollar tadbirkorligi bo'yicha moliyaviy kodeksning maqsadlari

O'zbekistonda Kodeksning qabul qilinishi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va mustahkamlash borasidagi tizimli sa'y-harakatlarni davom ettirishni ko'zda tutadi.

Ushbu tashabbusning asosiy tarkibiy qismlaridan biri — ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyalashtirish imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini yaratadigan genderga asoslangan ma'lumotlar infratuzilmasini shakllantirishdan iborat. O'z navbatida, milliy statistika bazasi ayollarning tadbirkorlik faolligi o'sishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu tizimlashtirilgan ma'lumotlar asosida xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki uchun yanada qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu, o'z navbatida, davlat va xususiy tashabbuslar samaradorligini oshiradi, qo'llab-quvvatlashni yanada manzilli va ta'sirchan qiladi.

Kodeksning tatbiq etilishi O'zbekistonda ayollarning tadbirkorlik tashabbuslarini barqaror rivojlantirish va xotin-qizlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiluvchi muhitni shakllantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekistonda Kodeksni joriy etishdan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida qulay shart-sharoitlar yaratish va to'siqlarni kamaytirish bo'yicha turli manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish;
- ayol tadbirkorlarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dalillarga asoslangan siyosatni shakllantirishni qo'llab-quvvatlash uchun ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o'rta tadbirkorli bo'yicha ma'lumotlarini toplash va ulardan foydalanish imkoniyatini kuchaytirish;
- moliyaviy ommaboplidagi gender tafovutni baholash va dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun ma'lumotlar platformasini (dashboard) ishlab chiqish va muvofiqlashtirish;
- ayol tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va qo'shimcha nomoliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning o'sishi va muvaffaqiyatini yuksaltirish.

KODEKSNING ASOSIY ELEMENTLARI

2.1 Boshqaruv

Milliy champion (National Champions):

O'zbekistonda Ayollar tadbirkorligi bo'yicha moliyaviy kodeksning joriy etilishiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbarlik qiladi. Markaziy bank Kodeksni qo'llab-quvvatlash, uning tamoyillarini targ'ib qilish va ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o'rta tadbirkorliklarni moliyaviy resurslardan foydalanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilovada keltirilgan boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Milliy championlar birgalikda quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladilar:

- ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi dasturlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Idoralararo hamjihat harakatlarni amalga oshirish uchun moliya institutlari va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish;
- manfaatdor tomonlar va kompaniyalarni jalg qilish orqali ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlar uchun moliyaviy ommabopliz ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish.

Milliy muvofiqlashtiruvchi:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kodeksning mamlakatda amalga oshirilishi bilan bog‘liq faoliyatni nazorat qiluvchi asosiy milliy muvofiqlashtiruvchi hisoblanadi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

- milliy Kodeks Ishchi guruh yig‘ilishlarini muntazam ravishda tashkil etish;
- Kodeksni imzolaganlar va ekotizim hamkorlarini rag‘batlantirish hamda jalg etish;
- Kodeksni amalga oshirish jarayonini monitoring qilish;
- mahalliy va xalqaro hisobot jarayonlarini joriy etilishini ta‘minlash;
- xalqaro hisobot berish uchun xalqaro manfaatdor tomonlar, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Tadbirkor ayollarni moliyalashtirish tashabbusi kotibiyati va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan aloqalarni boshqarish;
- boshlang‘ich amalga oshirilgan chora-tadbirlar, ularning ta’siri va Kodeks ko‘rsatkichlariga asoslangan 1 yillik boshlang‘ich ma’lumotlar jamlangan hisobotni taqdim etish;
- keyinchalik yillik hisobotlarda qo‘sishimcha chora-tadbirlar va ularning ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etish.

Milliy ma’lumotlar aggregatori:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekistondagi milliy ma’lumotlar aggregatori bo‘lib, bank va mikro moliya tashkilotlari sektorlaridan gender bo‘yicha ajratilgan ma’lumotlarni to‘plash, boshqarish va tarqatish uchun mas’uldir. Ma’lumotlar aggregatorining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- gender kesimida ma’lumotlarni to‘plash va yangilash;
- ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik bo‘yicha ma’lumotlarni onlayn platformasiga joylashtirish;
- gender kesimida ma’lumotlar bo‘yicha standartlashtirilgan hisobot namunasini ishlab chiqish;
- ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va bozorga oid tahlillarni almashish.

2.2 Kodeksni imzolagan tashkilotlar

Kodeks moliyaviy xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlar va ekotizim hamkorlarini ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida birlashtiradi. Kodeksni imzolagan tashkilotlar ayollar rahbarligidagi

Mikro, kichik va o‘rta tadbirkorliklarning moliyaviy ishtirokini yaxshilashga qaratilgan bir qator tamoyillar va harakatlarni bajarish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

1. Kodeks doirasida majburiyatnama imzolovchi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar tashkilotlar:

Imzolovchilar qatoriga banklar, mikromoliya tashkilotlari va genderga yo‘naltirilgan tashabbuslar orqali ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash majburiyatini olgan boshqa moliyaviy tashkilotlar kiradi.

Ularning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- kodeksga rasman qo‘shilish uchun imzolangan majburiyatnama xatini yuborish;
- Kodeks Kengashida faol ishtirok etish, strategiyani muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayoniga hissa qo‘shish;
- ishchi guruh yig‘ilishlarida ishtirok etish va fikr almashish uchun vakil tayinlash;
- ayol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida hisobot berish;
- gender kesimida ma’lumotlarni to‘plash va hisobot berish, Kodeksning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar asosida hisobot taqdim etish;
- ayol tadbirkorlar uchun moliyaviy va nomoliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish (masalan, genderga yo‘naltirilgan strategiyalar, moliyaviy mahsulotlar, trening va mentorlik dasturlari, konsalting xizmatlari va boshqalar).

2. Kodeks doirasida majburiyatnama imzolovchi ekotizimni rivojlantirishda ishtirok etuvchi hamkor tashkilotlar:

Ekotizimni rivojlantirishda ishtirok etuvchi tashkilotlar, davlat muassasalari va boshqa tegishli hamkorlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tashkilotlar ayol-tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Ularning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Kodeks tamoyillarini ilgari surish uchun milliy muvofiqlashtiruvchi bilan hamkorlik qilish;
- yangi tashkilotlarni Kodeksga imzolovchi sifatida undash uchun targ‘ibot va aloqalarni osonlashtirish;
- Kodeks Kengashi yig‘ilishlari va tadbirlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishni qo‘llab-quvvatlash;
- Kodeks talablarining bajarilishini nazorat qilish, jarayonni tahlil qilish va yangiliklar kiritish bo‘yicha takliflar berishda ko‘maklashish;
- gender bo‘yicha ajratilgan ma’lumotlarni to‘plash va yangilashni qo‘llab-quvvatlash.

3.3 Ishchi Guruh

Tarmoqlararo qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash maqsadida Milliy Nizom doirasida Kodeks bo‘yicha Ishchi guruh rasmiy ravishda tashkil etiladi. Ushbu Ishchi guruh turli manfaatdor tomonlarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri aniq vazifalarga ega bo‘ladi. Milliy Nizomga egalik qiluvchi hamda Kodeksning milliy muvofiqlashtiruvchisi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlagan holda, Ishchi guruh tarkibiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Ishchi guruh a'zolari Kodeksni qo'llab-quvvatlash, uning qabul qilinishini rag'batlantirish va uni ilgari surish uchun yetarli resurslar mavjudligini ta'minlash yo'lida birgalikda ishlaydi. Ishchi guruh a'zolari, shuningdek, o'z muassasalarining moliyaviy va tadbirkorlik ekotizimlaridagi o'rniqa asoslanib, tegishli yo'naliishlar bo'yicha ekspertlik bilimlari bilan umumiy faoliyatga hissa qo'shadilar.

Quyidagi asosiy chora-tadbirlar va majburiyatlar Kodeksni amalga oshirishga yo'naltiriladi:

1. **Milliy nizomni ishlab chiqish va e'lon qilish** – unda asosiy tashkiliy qarorlar, rollar, mas'uliyatlar hamda muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'naliishlari belgilanadi.
2. **Milliy Kodeksni amalga oshirish rejasini ishlab chiqish** – samarali ijrosini ta'minlash uchun amaliy harakatlar, natijalari bo'yicha batafsil jadvalni o'z ichiga oladi.
3. **Faoliyatning asosiy yo'naliishlari bo'yicha qo'shimcha Ishchi guruhlarni tashkil etish.** Ishchi guruhlari zaruriyatga ko'ra alohida e'tibor talab qilinadigan sohalarga qarab tuziladi.
4. **Hisobot shakllari va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish.** Muvofiglashtiruvchi barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida izchil ma'lumotlarni yig'ish, monitoring qilish va ma'lumot almashinuvini ta'minlash uchun standartlashtirilgan hisobot namunalarini yaratadi. Ishtirokchilar tasdiqlangan indikatorlar asosida individual rejalarini ishlab chiqadilar va Kodeksda belgilangan majburiyatlarga muvofiq tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.
5. **Milliy hisobotni ishlab chiqish va nashr etish** – hisobotda erishilgan natijalar, maqsadlarga erishish yo'lidagi yutuqlar, amalga oshirish davomida aniqlangan muammolar umumlashtiriladi va tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keyingi harakatlar uchun tavsiyalar beriladi. Hisobotda asosiy yutuqlar (masalan, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi imzolovchi tashkilotlar), asosiy xulosalar (masalan, imzolovchilarning dastlabki hisobotlari) ta'kidlanadi va Kodeks orqali erishilgan eng yaxshi amaliyot va natijalar, shu jumladan, imzolovchilar tomonidan amalga oshirilgan qo'shimcha harakatlar ko'rsatiladi.

3.4 Tartib-qoidalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kodeks Ishchi guruh faoliyatini muvofiglashtiruvchi tashkilot sifatida xizmat qiladi. Shu maqsadda mazkur Nizomda Ishchi guruhnini yig'ish va uning faoliyatini muvofiglashtirish bo'yicha asosiy tartib-qoidalar ko'rsatilgan. Amalga oshirish tartib-qoidalari boshqaruv, qarorlar qabul qilish va hamkorlikdagi sa'y-harakatlar uchun tizimli asos yaratadi. Quyidagi bo'limda manfaatdor tomonlarni jalb qilish, axborot almashish va hisobot berish, shaffoflikni ta'minlash va Ishchi guruh maqsadlariga moslashish jarayonlari ko'rsatilgan.

Uchrashuv bayonnomalari: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Ishchi guruhning barcha yig'ilishlarini tashkil qiladi va boshqaradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning majburiyatlari, belgilangan yo'l-xaritaning bosqichlarini amalga oshirishi va umumiy istiqbollarini kuzatib borishni amalga oshiradi.

Yig'ishlarning davriyiligi: Kodeks Ishchi guruhi yil davomida har chorakda yig'iladi.

Majburiyatnomalar va hisobot: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar va We-Fi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar to‘g‘risida hisobot berish uchun ko‘rsatmalar bilan imzolovchilar ro‘yxatini tuzadi.

Asosiy natijalar bo‘yicha fikr almashinuv: Ishchi guruh yutuqlar va bosqichma-bosqich erishilgan natijalarni yorituvchi yillik hisobot (Ishchi guruh yoki sektor doirasida tarqatiladigan hisobot) tayyorlaydi. Shuningdek, bozor tahlillarini o‘z ichiga olgan hisobot veb-saytda e’lon qilinadi va Ishchi guruh a’zolari bilan ulashiladi.

3. IMZOLOVCHI NOMZOD TASHKILOTLARNI ANIQLASH VA ULARNI JALB QILISH

3.1 Imzolovchi nomzod tashkilotlar va tanlov mezonlari

Davlat tashkilotlari mikro, kichik va o‘rtta tadbirkorlikni moliyalashtirish siyosatini rivojlantirishga qo‘shtan salmoqli hissasi hamda gender siyosatini ilgari surish hamda tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlashdagi faol roli uchun tanlab olindi. Ularning Kodeksdagi ishtiroki ayollarni biznesda qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan strategiyalarni, shuningdek, mikro, kichik va o‘rtta korxonalarning o‘sishi va kengayishiga yordam beruvchi tashabbuslarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar gender inklyuzivligi va tengligini rag‘batlantiruvchi huquqiy va institutsional bazani ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xususiy sektor, jumladan, tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari va assotsiatsiyalari tadbirkor ayollar uchun mo‘ljallangan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishdagi muhim roli, shuningdek, genderga oid strategiyalarni faol amalga oshirishi uchun tanlab olindi. Ushbu tashkilotlar tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlovchi milliy va xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etib, moliyaviy yechimlarni yaratishda innovatsion yondashuvlari bilan tanilgan. Bundan tashqari, ular ayollarning moliyaviy savodxonligi va tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan ta’lim va axborot kampaniyalarida ishtirok etadilar.

3.2 Imzolovchi tashkilotlarni jalg qilish

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksi haqida xabardorlikni oshirish maqsadida seminar tashkil etadi va imzolovchilar tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanib, taqdim etilishi lozim bo‘lgan Majburiyatnama xatini va Kodeks bo‘yicha materiallar bilan taqdim etadi. Imzolangan Majburiyatnama xatlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ko‘rib chiqiladi va saqlanadi, nusxasi tegishli xalqaro tashkilotlarga beriladi.

Majburiyatnama xatini imzolash orqali tashkilotlar o‘z muassasalarida Kodeksni qo‘llab-quvvatlash uchun rahbar tayinlash, We-Fi ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot berish va ayol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni kengaytirish va amalga oshirishni rasmiy ravishda o‘z zimmasiga oladi.

Bundan tashqari, Majburiyatnama xatini imzolovchi tashkilotlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarishlari uchun ixtiyoriy ravishda tanlashi mumkin bo‘lgan tavsiya etilgan chora-

tadbirlar ro‘yxati va belgilangan bosqichlar keltirilgan. Biroq, ushbu ro‘yxatdan tanlash majburiy emas.

Kodeks imzolanganidan so‘ng, imzolovchi tashkilotdan asosiy aloqada bo‘lgan shaxs quyidagi materiallarni oladi, jumladan:

- Kodeksning qabul qilinishini e’lon qilish uchun aloqa resurslari: <https://www.wefi.org/wp-content/uploads/2024/01/WE-Finance-Code-Media-Toolkit.pdf>)
- hisobot berish muddatlari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha qo‘llanma, shu jumladan, har chorakda Kodeks bo‘yicha hisobot berish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.
- zarur hollarda Ishchi guruhlarga qo‘shilish uchun taklifnomalar
- ishtirokchilar salohiyatini oshirish uchun tadbirlarga taklifnomalar.

4. MA’LUMOTLARNI YIG‘ISH VA HISOBOT BERISH BOSQICHI

5.1 Hisobot berish jarayoni

Ma’lumotlar va chora-tadbirlar bo‘yicha hisobot berish jarayoni:

1. Tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, uyushmalar va boshqa xususiy sektor institutlari:
 - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ko‘rsatkichlar haqida hisobot beradi;
 - asosiy chora-tadbirlar haqida hisobot beradi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:
 - barcha asosiy tashkilotlardan ma’lumotlarni oladi;
 - hisobtlarni ko‘rib chiqadi va birlashtiradi;
 - umumlashtirilgan chora-tadbirlar va erishilgan yutuqlar bo‘yicha hisobot taqdim etadi.
3. Markaziy bank Xalqaro moliya institutlariga ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar va asosiy chora-tadbirlar bo‘yicha hisobot beradi.

5.2 Asosiy tushunchalar

Mikro, kichik va o‘rta biznes va ayollar boshchiligidagi mikro, kichik va o‘rta biznes ta’riflari:

Ayollarga qarashli mikro, kichik va o‘rta korxonalar uchun milliy ta’rifini qabul qilish masalasi hozirda hukumat tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

Bank va mikromoliya sektori ishtirokchilari o‘rtasida quyidagi ta’riflar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan mikro, kichik va o‘rta korxonalar uchun ta’rif:

- mikro – yillik daromadi 1 milliard so‘mdan kam;
- kichik – yillik daromadi 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha;
- o‘rta – yillik daromadi 10 milliard so‘mdan 100 milliard so‘mgacha.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mikro, kichik va o‘rta korxonalar uchun ta’rif:

- **Egalik:** ayollar 50% dan ortiq ulushga ega bo‘lgan biznes;
- yoki **Boshqaruv:** bunda ayol bosh ijrochi direktor (bosh direktor), boshqaruvchi direktor yoki muhim qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan asosiy rahbarlik lavozimini egallaydi.

Ta’rifni o‘rnatish jarayoni: Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksining maqsadlari uchun moliya sektori Markaziy bank ta’rifidan foydalanadi.

5.3 Yakuniy qoida

Ushbu Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksning barcha ishtirokchilari mamlakatda ayollar tadbirkorligini barqaror va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga hissa qo‘sish uchun yaqin hamkorlikda harakat qiladilar. Har bir ishtirokchi o‘z vakolatlari va majburiyatlari doirasida umumiy maqsadga - moliyaviy ommaboplilikni rivojlantirish va ayollar uchun teng imkoniyatlarni rag‘batlantirishga munosib hissa qo‘sadi.

ILOVALAR

Imzolovchi tashkilotlar ro‘yxati

Tashkilot nomi		Tashkilot turi	Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga mas’ul rahbar
1.	Xalq banki	Tijorat banki	Rashidova Gulzoda
2.	Biznesni rivojlantirish banki		Yusupov Shoxzod
3.	O‘zsanoatqurilishbank		Ergashev Anvar
4.	O‘zmilliybank		Jalilov Bohodir
5.	Mikrokreditbank		Ibragimova Shahlo
6.	Asaka bank		Zokirov Surat
7.	Aloqabank		Nasretdinova Nasiba
8.	Agrobank		Turdiyev Jamshid
9.	Turonbank		Obidov Zoxidjon
10.	Ipak Yuli Bank		Isxakov Farrux
11.	Hamkorbank	Assotsiatsiyasilar	Shamsiddinov Saidjon
12.	Mikromoliya institutlari milliy assotsiatsiyasi		Umarov Mirlaziz
13.	Fintech assotsiatsiyasi	Mikromoliya tashkilotlari	Dusmatova Nargiza
14.	Sabr		Xudoyorov Sardor
15.	Renessanlar		Mamajonov Dilshodjon
16.	Imkon Finance		Akbarov Davron
17.	Oazis		Mashrabov Nurullo

Milliy championlar

O‘zbekistonda Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksining joriy etilishiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbarlik qiladi. Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va “Hamroh” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi bilan hamkorlikda Kodeksni targ‘ib qilish, uning tamoyillarini ilgari surish va tadbirkor ayollarni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Har har bir Champion o‘z vakolatiga mos keladigan o‘ziga xos vazifalarga ega:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Yetakchi champion. Markaziy bank moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchilar o‘rtasida Kodeksning qabul qilinishiga ko‘maklashadi va ularga rioya etilishini ta’minlaydi. Shuningdek, u muvofiqlikni saqlash va taraqqiyotni kuzatish uchun boshqa milliy championlar bilan hamkorlik qiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – Siyosat va tartibga solish bo‘yicha yetakchi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi xotin-qizlarning moliyaviy ommabopligrini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan milliy siyosatni ta’minlash bo‘yicha sa’y-harakatlarga rahbarlik qiladi, bu esa boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda tadbirkor ayollarining milliy ta’rifini belgilash va uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi – Sektor koordinatori.

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi mazkur Kodeksni qabul qilish bo‘yicha sektorni jalb etish, shuningdek, soha miqyosida ayol tadbirkorlar va tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida Markaziy bank hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishga mas’uldir.

4. “Hamroh” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi – Bozorga oid tushunchalar va salohiyatni oshirish.

Hamroh moliya sektori va tadbirkor ayollar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, tadbirkor ayollarni birlashtirib, ularning muammolari va ehtiyojlari haqida tushuncha beradi hamda ayollar boshchiligidagi biznesga moslashtirilgan moliyaviy bo‘lmagan xizmatlarni taklif qilish uchun moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ekotizimni rivojlanadirishda ishtirok etuvchi hamkor imzolovchilar.

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
2. Mikromoliya institutlari milliy assotsiatsiyasi (NAMI)

Imzolovchi tashkilotlar foydalanishi mumkin bo‘lgan xalqaro o‘quv dasturlari (“Peer Learning”)

Tashabbus ishtirokchilari Kodeksni amalga oshirish va ayollar rahbarligidagi mikro, kichik va o‘rta korxonalarini (WMSME) qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘z salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy o‘quv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks Championlari hamjamiyati uchun onlayn vebinlar. Ushbu onlayn sessiyalar ishtirokchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: kodeksni tatbiq etishning amaliy usullari bo‘yicha foydali tavsiyalar olish, boshqa mamlakatlardagi ilg‘or tajribasini o‘rganish, o‘z bilimlarini ulashish va o‘z mamlakatini xalqaro miqyosda namuna sifatida tajriba almashis hamda boshqa mamlakatlardagi ekspertlar, amaliyotchilar va ijrochilar bilan aloqa o‘rnatish.

Ayol tadbirkorlarni moliyalashtirish strategiyasi va biznes asoslari bo‘yicha boshlang‘ich o‘quv kurs. Ayollar uchun moliyaviy ommaboplrik alyansi tarmog‘ining⁶ ma’ruzachilari hamda mintaqaga va butun dunyo bo‘ylab yetakchi ekspert amaliyotchilari bilan Ayol tadbirkorlar strategiyasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlarini qamrab oladi. Sessiyalar ishtirokchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: strategiyani ishlab chiqish va joriy etish, yetakchi banklardan tajriba olish, ichki xilma-xillik va ommaboplrik (D&I) siyosatlarini rivojlantirishni va ushu dasturlarni amaliy qo‘lash haqida ma’lumot olish hamda tegishli maqsadlar va asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ni aniqlash.

Amaliy tashrif. Ushbu bir kunlik tashrif ishtirokchilarga Ayol tadbirkorlarni moliyalashtirish kodeksining amalda qanday joriy etilayotganini bevosita kuzatish, real tajriba orttirish va boshqa ishtirokchilar bilan fikr almashish imkonini yaratadi.

Ayol tadbirkorlar Gender ma’lumotlarini o‘rganish o‘quv kursi. Ushbu kurs kichik va o‘rta biznesga oid ma’lumotlarning jinsga bo‘linishi, ularni qanday yig‘ib olish va biznes qarorlarini qabul qilishda foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etadi.

⁶<https://financialallianceforwomen.org/members/>